


**NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA
VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI
BO‘YICHA MA’LUMOT**

*2021- yil 1- dekabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


2



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

3



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)




■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)

4



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (yanvar-noyabr oylarida)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni


(2021 yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


5



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofimalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 1 209 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 238 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 150 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 237 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 325 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 132 taga yoki 28,9 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra 21 201 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 081 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 20 456 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 758 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 736 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 407 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra 291 tani tashkil etib, ulardan 285 tasi yoki 97,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 29 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 35 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- dekabr holatiga, birlikda)



**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)


8

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	57	44	13
Qozog'iston Respublikasi	14	8	6
Xitoy Xalq Respublikasi	53	30	23
Qirg'iz Respublikasi	11	9	2
Tojikiston Respublikasi	10	8	2
Turkiya Respublikasi	38	15	23
Hindiston Respublikasi	13	5	8
Janubiy Koreya Respublikasi	33	23	10
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	5	2	3

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

9



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

10


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Namangan viloyati	285	177	108
Namangan shahri	88	52	36
Mingbuloq	7	2	5
Kosonsoy	29	21	8
Namangan	18	16	2
Norin	12	7	5
Pop	27	17	10
To'raqo'rg'on	14	8	6
Uychi	20	17	3
Uchqo'rg'on	10	5	5
Chortoq	27	15	12
Chust	20	10	10
Yangiqo'rg'on	13	7	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 88 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 30,9 %), Kosonsoy 29 ta (10,2 %) Pop va Chortoq 27 tadan (9,5 %), Chust va Uychi 20 tadan (7,0 %) hamda Namangan 18 ta (6,3 %) dan tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

11




2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri (32,9 %), Chust (8,0 %), Namangan (6,8 %), Uychi (6,7 %), Pop (6,4 %), To'raqo'rg'on (6,3 %), Uchqo'rg'on (6,2 %), Kosonsoy (6,0 %) Chortoq (5,9%), Yangiqo'rg'on (5,1 %), Norin (5,1 %) hamda Mingbuloq (4,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-noyabr oylarida, birlikda)


2021- yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (28,2 %), Chust (8,8 %), To'raqo'rg'on (7,7 %), Uychi (7,1 %), Uchqo'rg'on (6,9 %), Chortoq (6,6 %), Namangan, Norin va Pop (6,3 %dan), Mingbuloq va Kosonsoy (5,3 %dan) hamda Yangiqo'rg'on (5,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (36,6 %), Uychi (7,4 %), Pop (6,8 %), Chortoq (6,7 %), Namangan (6,3 %), Kosonsoy (6,2 %), Uchqo'rg'on (5,5 %), Chust (5,4 %), Norin (5,3 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), To'raqo'rg'on (5,0 %), Mingbuloq (3,7 %) tumanlari hissasiga tegishli.




2017-2021-yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar-noyabr oyida, birlikda)



14



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda To'raqo'rg'on (26,8 %), Yangiqo'rg'on (17,9 %), Chortoq (12,9%), Namangan shahri (12,0 %), Namangan (10,5 %), Uchqo'rg'on (5,7 %), Chust (5,2 %), Kosonsoy (2,8 %), Mingbuloq (2,2 %), Uychi (2,2 %), Norin va Pop (0,9 % dan) tumanlari hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-noyabr oyida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.